

O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING TA’LIM-TARBIYA SOHASIDAGI INQIROZLARI VA ULARGA MUNOSIB YECHIMLAR

Xamidova Shohsanam Otabekovna

Samarqand Davlat Chet tillar instituti talabasi

Shohsanamxamidova0@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Zubaydova Nilufar Negmatullayevna**

Anotatsiya: Maqolada o‘smir yoshdagi bolalarning ta‘lim-tarbiya sohasidagi inqirozlari va bu holatlarga yechimlar muhokama qilinadi. Maqola, o‘smirlarning jinoyatga moyilligi, ta‘limga qiziqishlarining susayishi va ota-ona hamda o‘qituvchilarning tarbiyadagi roli haqida ma‘lumot beradi. O‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy muhit ta‘siridagi xatti-harakatlari yoritilib, ularga e‘tibor, do‘stona munosabat va tarbiyaning boshlanish davri haqida fikrlar bildiriladi.

Key words: loqaydlik, mas‘uliyatsizlik, o‘smirlik, tarbiya, zamonaviy o‘quv maskanlari, do‘stlik, qadriyatlar.

Tez suratlarda rivojlanib borayotgan diyorda, cheksiz imkoniyatlar asrida yashayapmiz. Bugungi kunda o‘zimiz xohalagandek chiroyli muhit va zarur shart-sharoitlarni yaratish, keng ko‘lamli manbalar, zamonaviy o‘quv maskanlari va malakali ustozlar yordamida uzluksiz rivojlanish va bilim olish uchun barcha imkoyatlarga egamiz. Kundan kun yurtimizdagi yosh avlodning ta‘lim sohasida erishayotgan yutuqlari ko‘payib bormoqda, yangidan yangi qirralarni zabt etishmoqda, xalqaro musobaqalarda respublikamiz bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tarishda o‘z xissalarini qo‘shishmoqda. Bularning barchasi biz uchun o‘zgacha shodlik, kelajakka ishonch va faxr hissini bag‘shida etadi. Oliy maqsadlar bilan o‘sig‘ayotgan bolalar bizlarni qanchalik ruhlantirsa, qora kunlarga yuz tutayotgan, o‘zini tubsiz jarlik sari yetaklayotgan bolalar bizlarni shunchalik qayg‘uga soladi, tushkunlik girdobiga mahkum qiladi. Eng achinarlisi, bu jinoyatlarning aksariati o‘smirlar – mustaqil hayotga endigina kirib kelayotgan shaxslar tomonidan sodir etilyapti. Ushbu maqolada jinoyatlarning, mudhish holatlarning nega aynan o‘smir yoshdagi bolalar orasida sodir bo‘layotganligi, nega ularning bilim olishga nisbatan qiziqishlari so‘nib, loqayd va mas‘uliyatsiz bo‘lib boryotganliklarining sabablarini, ular hayotida ota-ona e‘tibori, ustozlarning pedagogik mahorati qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini yoritib beriladi.

Har bir narsaning boshlanish nuqtasi bo'lgani kabi farzand tarbiyasining ham boshlanish davri mavjud. Bola ona qornida paydo bo'lgandan boshlab atrof muhitdagi voqea-hodisalarning barchasi unga o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi.

Quyida sizlarga bir hikoyani aytib o'tmoqchiman.

Bir kuni bir donishmanddan so'rashibdi: "Farzandimning tarbiyasini qachon boshlaganim ma'qul?" Donishmand u kishidan farzandining yoshini so'rganida, bir oylik degan javobni olibdi va shunday debdi: "Birodar, bir oyga kechikibsiz." Medidsina tadqiqotlariga ko'ra bola uch kunligidan boshlab o'z onasini taniy boshlarkan. Xo'sh, ana endi aytingchi, tarbiyaning boshlanishi qaysi davrga borib taqalyapti? Bola nima uchun jinoyat ko'chasiga oson kiryapti? Ularning tarbiyasiz va saviyasiz bo'lib o'sishlarida maktab aybdormi? Muallimmi yoki ijtimoiy tarmoqlar?

Inson ikki marotaba dunyoga keladi. 1-chisi ilk bor dunyo yuzini ko'rish, 2-si o'smirlik davridagi tug'ilish. Ota-ona farzandini 12-13 yoshlarigacha qanday tarbiya qilgan bo'lsa, 12-13 yoshidan yani o'smirlik davridan boshlab to yetuklik davriga qadar yana huddi shunday yumshoq muomala bilan so'zlamog'i va yana hammasini qaytadan, murakkabroq tarzda tanitmog'i lozim. Ammo, o'smir tomonidan biror ayb ish qilinsa, ota-onasi ham, o'qituvchisi ham uni koyish, qilgan qilmishi uchun uyaltirish orqali to'g'ri yo'lga boshlamoqchi bo'lishadi. Ba'zi holatlarda "Endi sen ham yosh bola emassan, aqlingni yig'ib ol" deya kaltaklashgacha borishadi. Lekin aslida, o'smirni koyish yoki kaltaklash go'dakni koyish va kaltaklash bilan tengdir.

Bola o'smirlik davrida qayta tug'iladi deganimiz shuki, o'smirlikkacha u ota onasi va yaqinlarini tanigan bo'lsa, endi atrofdagi insonlarni taniy boshlaydi. Yuqorida aytganimizdek, ularning ongiga singdirilgan "Endi sen kap-katta odamsan, hammasini o'zing uddalahing kerak" qabilidagi gaplar uni barcha qiyinchilik va tushunmovchiliklarni yolg'iz o'zi yengib o'tishiga undaydi. Bola hammasini o'zicha hal qilishga urinadi, ota-onaga aytishni o'ziga isnod deb qabul qiladi va xato ortidan xato qilishda davom etadi.

Ular bu yoshda shaxsan bajara olgan ishlaridan cheksiz ruhlanadilar. O'zlarini katta odamlardek his eta boshlaydilar. Ammo, kattalar davrasiga qo'shilishga uringanlarida "Sen hali yosh bolasan, bor ishingni qil" qabilidagi gaplarga duch kelishadi. Xolbuki, atrof muhitni tahlil qilib yashayotgan o'smir endi ziddiyat orasida qoladi.

Atrof-muhitni, insonlarni tahlil qilar ekan mehr o'rniga adolatsizlikni, ilm o'rniga johillikni, shafqat o'rniga zulmni ko'rib, hammasidan qo'rqa boshlaydi. U shu paytgacha xayolan tasavvur qilib yurgan haqiqat va adolatga hayotning bo'ysunishini istaydi. Aynan shu davrda o'smirlar ularni to'g'ri yo'lga boshlovchi, mehr va e'tibor beruvchi bir do'stga muhtoj bo'lishadi. O'smir hayotga moslasha olmay turgan bir

Davrda ularga berilayotgan dashnomlar ortiqcha. Shafqatsiz jazolar ularni mard, to'g'riso'z, insofli va qat'iyatli bo'lib o'sishdan to'sib turadi. Bu davrda ota-onalar va ustozlar ular bilan do'st bo'lib olishlari, kattalar safiga qo'shishlari va qiziqishlariga alohida e'tibor bilan qarashlari ularning yorqin kelajaklari uchun asosiy poydevordir.

Ular odatda o'z ota-onalari va ustozlarini do'st sifatida qabul qilishmaydi. Negaki, ular ko'pincha o'z tajribalaridan o'tgan voqealar haqida so'zlashadi. Bu esa o'smir yoshdagi bolalar uchun zerikarli hisoblanadi. Bu vaziyatda ota-ona va ustozlar bolani kelgusi zamonga tayyorlashlari, o'z ustilarida tinimsiz ishlashlari va doimiy yangiliklardan xabardor bo'lib turishlari talab qilinadi. Ular farzandlari bilan do'stona munosabatlari jarayonida ularga "haqiqiy do'st" qanday bo'lishi kerakligini, uning xislatlari va do'stlik qadriyatlarini ham uqdirib borishlari zarur. Bu ko'rsatmalar ularga to'g'ri va chin do'st tanlay olishlarida va o'zlari ham haqiqiy do'stlik qadriyatlariga munosib bo'la olishlarida ko'makdosh bo'ladi. Buning birdan bir foydali usuli, talab qiliniyotgan vazifalarni amalda qo'llab ko'rsatishdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'smir yoshdagi bolalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda ularni qo'shimcha darslarga berishlari va vaqtlarini imkon qadar foydali mashg'ulotlarga, ilm egallashga sarflanishiga e'tiborli bo'lishlari shart. Bekor qolgan har qanday kishi, vaqtiniazmunli sarflash uchun nimadir o'ylab topa boshlaydi. Bunday vaziyatda nafaqat o'smir, balki katta yoshli insonlar ham boshqalar bilan suhbat qurishni, biror bir vazifa bilan mashg'ul bo'lishni istashadi.

Bugungi texnologiyalar rivojlangan bir davrda, bolalarning bekor qolishlari xavflidir. Chunki ijtimoiy tarmoqlardagi har xil o'yinlar yoxud axloqsiz video va tasvirlar bolalarning xayolini o'zlariga osinlikcha jalb qilishadi. Bu hatto ularni jinoyat ko'chasigacha yetaklab boradi. Birinchi jinoiy to'da ham aynan amerikaliklarning jangari filmidan so'ng tashlil topgan.

Bundan tashqari ota-onalar va ustozlar bolalarga ichish chekishning zararlari haqida ham o'smir yoshdan boshlab ma'lumot berib borishlari maqsadga muvofiqdir. Lekin, agar ularning o'zi ichsa, chaksa, bola ham shubhasiz bu ishlarni takrorlaydi. Chunki endi ularda na tanlash imkoniyati va na yaxshi illat namunasi qoladi. Ularning tarbiya jarayonlaridan tashqari, ilm olish jarayonlarida ham o'qituvchi va ota-onalar qiyinchiliklarga duch kelishadi. Asosiy sabablaridan birinchisi bolaning ma'lum fanlarga qiziqishining sustligi va o'qituvchidagi pedagogik dars o'tish mahoratining yetishmovchiligidir. Pedagogik dars o'tish jarayonida har bir o'quvchining o'rganish qobiliyatiga qarab ular ma'lum guruhlarga ajratilishi kerak. O'rganish qobiliyatiga ko'ra o'quvchilar asosan uchta turga bo'linishadi.

Ko'rib o'rganuvchilar- ma'lumotlarni rasm, diogramma va grafiklar orqali o'rganishadi. Bu usulda ta'lim oluvchilar o'qituvchining og'zaki nutqidan tez zerikishadi va o'qituvchi bilan yuzma-yuz savol javob qilishni afzal ko'rishadi. Ular hatto o'qituvchining yuz ifodalariga qarab, ularga nisbatan munosabati va dars o'tishga bo'lgan ishtiyoqini anglab olishadi.

Eshitib o'rganuvchilar – o'qituvchi tomonidan og'zaki aytilgan ma'lumotlarni tez va oson eslab qolishadi. O'qib o'zlashtirishdan tez zerikib qolishadi. Ular ham o'qituvchining kayfiyatini, muomalasini gapirish toniga qarab aniqlashadi.

Sezib o'rganuvchilar - har bitta o'rganayotgan narsasini qo'llari bilan ushlab ko'rishga odatlangan bo'lishadi. O'qituvchi nutq so'zlayotganida yoki mustaqil ravishda biror ma'lumotni o'qib o'rganayotganda ham o'zlari uchun qiziqarli va kerakli bo'lgan qismlarini yozib olishadi. O'qituvchi bu turdagi o'quvchilar bilan ishlayotganida tana a'zolari, qo'l-oyoq va bosh harakatlariga ham e'tiborli bo'lishlari zarur.

O'quvchilarni ta'lim berishdan oldin o'zlashtirish usullariga qarab ma'lum guruhlariga ajratib olish zarur. Ayniqsa, o'smir yoshdagi o'quvchilar bilan ishlayotgan o'qituvchi dars o'tish metodi, bilim darajasidan tashqari muomala, yuz ifodalari va hatto harakatlariga nisbatan ham sinchkov bo'lishlari talab etiladi. O'smir aynan atrofni tahlil qilib yurgan jarayonida, mehrga tashna bo'lib yurgan inqirozli vaqtlarida o'qituvchidan o'z vaqtida e'tibor, mehr va bajargan vazifasiga maqtoqlar qabul qila olsa, o'ylaganimizdanda ko'proq mas'uliyatli, ilimli va tarbiyali bo'lib ulg'ayiahda davom etishadi.

Xulosa qilib aytganda, o'smir yoshdagi bolalarning yetuk shaxslar bo'lib yetishishida ota-ona va muallimlar avvalo uzluksiz izlanishda bo'lishlari, zamonga xos yangiliklardan boxabar bo'lishlari, farzandlarining qiziqishlari-yu vaqt sarflash jarayonlariga e'tiborli bo'lishlari lozim. Ularning hayotini ziddiyatlarga to'lririshdan ko'ra, yelkadosh do'st bo'lishlari, mehnatlarini taqdirlab turishlari va o'z saflaridan joy berishlari muhimdir.

Aziz ota-onalar va ustozlar, unutmang, bugun siz ko'rib turgan o'sha loqayd o'smirlar ham, masuliyatli o'smirlar ham kun kelib ota-ona va ustoz bo'lishadi. Bugungi qilayotgan ishlarimiz bir umrlik uqubatimiz yoki bir umrlik saodatimiz bo'lishi mumkin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zubaydova Nilufar. “Pedagogik mahorat va o’smirlar tarbiyasi.” Toshkent: O’qituvchi, 2019. 150 bet.
2. Karimova Dilfuza. “O’smirlarning ijtimoiy muhitdagi rivoji.” Samarqand: Sharq, 2018. 200 bet.
3. Sodiqov Akmal. “Oila va maktabning ta’lim-tarbiyadagi roli.” Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti, 2017. 175 bet.
4. Ismoilov Davron. “Jinoyatchilikning psixologik omillari.” Toshkent: Fan, 2020. 220 bet.
5. Abdullayeva Gulchehra. “Yoshlar va zamonaviy texnologiyalar.” Toshkent: Akademi nashr, 2021. 180 bet.
6. Rahimov Otabek. “O’smir psixologiyasi: nazariya va amaliyot.” Farg’ona: Farg’ona Davlat Universiteti nashriyoti, 2016. 140 bet.
7. Xoliqova Shoira. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tarbiya.” Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. 160 bet.
8. Yuldashev Javlon. “Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlarning xulq-atvori.” Toshkent: Universitet, 2021. 185 bet.
9. Худайназаров, Ф. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Ривожлантиришнинг Назарий Асослари. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 25(2), 335-340.
10. Xudoynazarov, F. (2023). Islom Moliyasi–Muammolar Va Yechimlar. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(8), 109-114.
11. Худойназаров, Ф. (2023). Ислом Иқтисодиёти: Ибн Халдун Тавсиялари. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 24(6), 351-356.
12. Худойназаров, Ф. (2023). Тўқима Ҳадислардан Ҳадисларни Сақлаб Қолишда Муҳаддислар Фаолияти. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 763-776.
13. Khudaynazarov, F. (2020). Political and Dynastic Relations Of Kievan Rus. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(08), 55-64.
14. Valieva, N. (2022). Marie-Laure Derat, *L’énigme d’une dynastie sainte et usurpatrice dans le royaume chrétien d’Éthiopie du XIe au XIIIe siècle*. *Aethiopica*, 25, 258-261.
15. Валиева, Н. (2021). «Житие Лалибэлы»: новые перспективы исследования. *Библия и христианская древность*, 3(11), 197-214.
16. Valieva, N. (2021). Prof. Geta (t) chew Haile:(approx. 04/19/1931–June 10, 2021). *Scrinium*, 17(1), 16-19.

17. Valieva, N., & Liuzzo, P. M. (2021). Giving Depth to TEI-Based Descriptions of Manuscripts: The Golden Gospel of Ham. *Aethiopica*, 24, 175-211.
18. Valieva, N. (2020). The Manuscript Book in the Traditional Culture of Ethiopia, written by Platonov Vyačeslav Michajlovič, 2017. *Scrinium*, 16(1), 410-412.
19. Valieva, N. (2020). Getatchew Haile, The Ethiopian Orthodox Church's Tradition on the Holy Cross. *Aethiopica*, 23, 281-285.
20. Valieva, N. (2019). Nafisa Valieva, The 'Gadla Lālibalā collection of textual units': tradition and documentation. *Aethiopica*, 22, 315-318.
21. Валиева, Н. Ф. Библия И Христианская Древность. Библия И Христианская Древность Учредители: Кожухов Сергей, (3), 197-214.
22. Валиева, Н. А. (2022). Вақф Тушунчаси Ва Тарихдаги Вақф Ташкилотлари Ҳақида. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(2), 107-114.
23. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapping Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 805-809.
24. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In *Инновации В Современном Языковом Образовании* (pp. 61-65).
25. Сулейманова, Н. М., & Насруллаев, Ж. Р. О предложении и его номинативном значении. *Учёный XXI века*, 26.
26. Sattarova, D. (2024, January). Siyosiy Notiqlikning Milliy Madaniy Va Lisoniy Tahlili (O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti IA Karimov Nutqlari Asosida). In *Международная конференция академических наук* (Vol. 3, No. 1, pp. 5-7).
27. Sattarova, D. (2023). Komunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. *Молодые ученые*, 1(22), 41-43.
28. Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 25-28.
29. Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance Of Speaking Activities In Teaching English. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).